

TA’LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA’LIM SAMARADORLIGI VA SIFAT MASALALARI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi
Iminova Dilnoza Nasirovna*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19436640>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida ta’lim samaradorligi va sifatini ta’minlash masalalari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi o‘quv jarayonini tashkil etish, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi hamda ta’lim natijalarining samaradorligiga ta’siri yoritib beriladi..

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, ta’lim sifati, ta’lim samaradorligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim muhiti, masofaviy ta’lim, elektron ta’lim resurslari, pedagogik innovatsiyalar, raqamli kompetensiya.

Annotation: This article analyzes the issues of educational efficiency and quality in the conditions of digitalization of the educational process from a scientific and methodological perspective. The impact of the introduction of modern information and communication technologies into the education system on the organization of the learning process, the level of knowledge acquisition, and the effectiveness of educational outcomes is discussed.

Keywords: digital technologies, digitalization of the educational process, quality of education, educational efficiency, information and communication technologies, digital learning environment, distance learning, electronic educational resources, pedagogical innovations, digital competence.

Аннотация: В данной статье с научно-методической точки зрения анализируются вопросы эффективности и качества образования в условиях цифровизации образовательного процесса. Рассматривается влияние внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в систему образования на организацию учебного процесса, уровень усвоения знаний и результативность образовательных результатов.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация образовательного процесса, качество образования, эффективность обучения, информационно-коммуникационные технологии, цифровая образовательная среда, дистанционное обучение, электронные образовательные ресурсы, педагогические инновации, цифровая компетентность.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim muhitini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish hamda bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.1.

1 Begimqulov U.Sh. Ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2018.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni mamlakatda raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatni rivojlantirish bilan bir qatorda ta’lim tizimida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni nazarda tutadi¹. Ushbu strategiyada ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi, internet tarmog‘i va elektron ta’lim resurslari bilan ta’minlash, shuningdek aholining raqamli savodxonligini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi². Mazkur hujjatda masofaviy ta’lim tizimini rivojlantirish, elektron ta’lim platformalarini joriy etish, onlayn kurslar va raqamli o‘quv resurslarini kengaytirish orqali ta’lim sifatini oshirish vazifalari belgilangan. Bu esa o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini yaratadi

Raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari pedagogika, axborot texnologiyalari va ta’lim menejmenti sohalarining integratsiyasi bilan bog‘liq. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, elektron resurslar, masofaviy ta’lim platformalari va raqamli o‘quv muhitidan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashga, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga va uni amalda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi³. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar nafaqat o‘quv materiallarini yetkazish vositasi, balki o‘qitish metodikasini takomillashtiruvchi muhim didaktik omil sifatida qaraladi.

Biroq raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud:

- talabalarining diqqat va e’tibor darajasining pasayishidir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli mobil ilovalar ko‘plab axborot oqimini taqdim etadi. Bu esa talabalarni bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyat bilan shug‘ullanishga majbur qiladi. Natijada diqqatning barqarorligi pasayadi, o‘quv materiallarini chuqur tahlil qilish qobiliyati susayadi hamda bilimlarni tizimli o‘zlashtirish jarayoni qiyinlashadi. Psixologiyada bu holat “fragmentar fikrlash” yoki “parcha-parcha idrok” sifatida izohlanadi.

- talabalarda psixologik qaramlikning shakllanish ehtimolidir. Mobil telefonlar, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalardan ortiqcha foydalanish talabalarning vaqtini samarasiz sarflashiga olib kelishi mumkin. Bu jarayon asta-sekin odatga aylanishi va psixologik qaramlikni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Bunday holatda talaba o‘qish jarayoniga yetarli e’tibor qaratmaydi, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi.

- talabalarining ijtimoiy muloqot ko‘nikmalariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. An’anaviy ta’lim jarayonida talabalar o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan bevosita muloqot qilish orqali ijtimoiy tajriba orttiradi. Ammo ko‘p vaqtni virtual muhitda o‘tkazish real muloqot jarayonining

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmoni

3Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

kamayishiga olib keladi. Natijada ayrim talabalar jamoada ishlash, fikrini erkin ifoda etish yoki ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

– raqamli texnologiyalar bilan uzoq vaqt ishlash psixofiziologik holatga ham ta’sir ko’rsatadi. Kompyuter va mobil qurilmalardan uzoq vaqt foydalanish ko’zning tez charchashi, uyqu rejimining buzilishi, ruhiy zo’riqish va stress holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Bu holatlar talabalarning umumiy psixologik holatiga salbiy ta’sir etib, ularning o’quv faoliyatidagi faolligini pasaytiradi.

– barcha ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasi bir xil darajada rivojlanmaganligi, internet tezligi va sifatining yetarli emasligi ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin;

- o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi;

- raqamli texnologiyalarni samarali qo’llash uchun pedagog kadrlar zamonaviy axborot tizimlari, elektron platformalar va innovatsion o’qitish metodlari bilan ishlash ko’nikmalariga ega bo’lishi zarur.

Ilmiy-metodik jihatdan ushbu muammolarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Ta’lim jarayonida raqamli vositalardan maqsadli va me’yoriy foydalanish, o’quv faoliyatini an’anaviy va raqamli metodlar uyg’unligida tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirish zarur. Shuningdek, pedagoglar talabalarni raqamli muhitda sog’lom psixologik muvozanatni saqlash, vaqtni to’g’ri taqsimlash va texnologiyalardan ongli foydalanishga o’rgatishlari lozim.

Shuningdek, ta’lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etish talab etiladi. Bunda bir tomondan ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasini mustahkamlash, zamonaviy kompyuter texnikasi va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash zarur bo’lsa, ikkinchi tomondan pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, elektron darsliklar, multimedia o’quv materiallari va interaktiv platformalarni yaratish ham ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhiti o’quv jarayonini yanada samarali, ochiq va innovatsion shaklda tashkil etishga imkon beradi. Biroq ushbu jarayonning muvaffaqiyati texnik infratuzilmaning rivojlanganligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi hamda ta’lim jarayonining ilmiy-metodik jihatdan to’g’ri tashkil etilishiga bevosita bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Begimqulov U.Sh. Ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Tolipov O’., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2017.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risidagi farmoni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to’g’risidagi farmoni.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2019.